

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518757>

ZIRHLI VA AVTOMOBIL TEXNIKALARINI TOG‘LI SHAROITLARDA  
HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH, VA BOSHQARISHGA  
QO‘YILGAN TALABLAR

A.S.Shukurov

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

*Annotatsiya: Mazkur maqolada zirhli va avtomobil texnikalarini tog‘li sharoitlarda, boshqarishda harakat xavfsizligini ta’milashning o‘ziga xosligi, va ularga qo‘yilgan talablar, yetakchi xorijiy mamlakatlarni avtomobil texnikalarini tog‘larda xavfsiz harakat usullari bo‘yicha tajribasini o‘rganish, zamонавиј qurolli to‘qnashuvlarda texnikalarini tog‘larda xavfsiz harakat usullarini tahlil qilish va aniqlash va hayotga tadbiq etish tranformatsiyasi aks etgan.*

*Kalit so‘zlar: zirhli, avtomobil, texnika, harakat, havfsizlik, tog‘, sharoit, tusiq, transformatsiya.*

*Аннотация: В данной статье отражена специфика обеспечения безопасности движения бронированных и автомобильной техники в горных условиях, при управлении, и требования к ним, изучение опыта ведущих зарубежных стран по безопасным способам передвижения автомобильной техники в горах, анализ и выявление методов безопасного передвижения в горах в современных вооруженных конфликтах и трансформация их на практике.*

*Ключевые слова: Зирхли, автомобиль, техника, движение, безопасность, гора, условия, лодка, трансформация.*

**Annotation:** This article reflects the peculiarity of ensuring the safety of movement in mountainous conditions, management of automotive techniques, and the requirements imposed on them, the study of the experience of leading foreign countries in the methods of safe movement of automotive techniques in the mountains, the analysis and identification and implementation of techniques in modern armed conflicts in the mountains

**Keywords:** car, technique, movement, security, mountain, conditions, fluff, transformation.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida chuqur islohatlar jarayoni kechayotgan ayni bir paytda Qurolli kuchlarda bo‘lgan avtomobil texnikalariga qo‘yilgan talablar o‘zgardi, ya’ni armiya harakatchan, ixcham va har qanday vazifani tezkorlik bilan bajara olishi shart. Zamonaviy avtomobil texnikasi – qo‘sishlar harakatchanligining moddiy negizi bo‘lib, ularning tezkor va taktik harakatlarini ta’minlashning asosiy vositalaridan biridir. Mudofaa vazirligi, avtomobil texnikalari boshqarmasi tomonidan avtomobil texnikalarining sifati, ulardan foydalanish davrida kafolatli xizmatini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda, shuning bilan bir qatorda shaxsiy tarkib mahoratini oshirish, avtomobil texnikalarini doimiy yuksak jangovar shay holda ushlab turishi, texnikalardan sifatli foydalanishni tashkillashtirish va nosozliklarning kelib chiqish holatlariga tubdan barham berish talab qilinmoqda.

**Asosiy qism.** Aynan qiyin va tog‘li sharoitlarda zirhli va avtomobil texnikalardan foydalanish va harakat havfsizligini ta’minlash, tog‘ va cho‘l xududlari o‘zining murakkabligi, tabiiy-iqlim sharoitlari, o‘simlik qoplamlari xususiyatlari, qatlaming har-xilligi va boshqa omillar bilan farqlanadi. Ushbu faktorlar texnikalarni tog‘li hududlarda boshqarish bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi va xavfsiz harakatlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Qo‘sishlarda o‘tkazilayotgan jangovar o‘quvlar tahlillari, hamda oxirgi yillarda bo‘lib o‘tayotgan jangovar harakatlarning tajribalari shuni ko‘rsatadiki, har xil

sharoitidagi janglar asosan o‘tish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘ylab, yassi qiya, tepaliklar, shaharlar va vodiylarda olib borilmoqda. Bunda joylarni murakkab pastbalandliklari xavfsiz harakatlanishda va bir biridan ajralgan yo‘nalishlarda jangovar harakatlarni olib borishga majbur bo‘lmoqda.

Ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tog‘li sharoitlarda avtomobil texnikalaridan foydalanish va joyidan qo‘zg‘atishning o‘ziga xos xusuiyatlaridan biri, tog‘chi bo‘linmalarining haydovchilari tog‘ sharoitlarida haydash bo‘yicha alohida kurslardan o‘tadi, a’lo va yaxshi baho olgan haydovchilarga tog‘ sharoitlarida avtomobil texnikalarni haydashga ro‘xsat beriladi. Shundan so‘ng ushbu haydovchilarga maxsus ko‘krak nishonlari beriladi.

Tog‘li sharoitlarda (1-rasm) zirhli texnikalardan foydalanish va harakat havfsizligini ta’minalash, harbiy qismlarni qo‘llashda ta’sir etuvchi omillar qo‘sishinlar va harbiy texnikalarni shayligi ma’lum muddat ishlatilgandan keyin, kalendar vaqt o‘tgandan keyin yoki foydalanishning ma’lum etapida o‘tkaziladigan qaysidir turdagи to‘liq hajmdagi majburiy texnik xizmat ko‘rsatishni ko‘zda tutuvchi rejali-majburiy texnik xizmat ko‘rsatish tizimi bilan amalga oshiriladi.




**1-rasm.** Tog‘li sharoitlarda zirhli texnikalar harakati

Bundan tashqari shahar, qishloq va aholi yashash joylarida aholini yo‘llarda kutilmaganda chiqib qolishi, paydo bo‘lishi va boshqa to‘siqlar harakat havfsizligini olib borishga salbiy ta’sir etadi. Shuning uchun avtomobil texnikalarini va boshqa kuch vositalarini bo‘linmalar bo‘yicha tarqatib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ayrim holatlarda esa zirhli texnikalarini yo'llardan tashqarida harakatlanishini cheklaydi. Tog'li sharoitlarda zirhli va avtomobil texnikalardan foydalanish va harakatlanish azal-azaldan insoniyat oldida turgan muammolardan biri bo'lib kelgan.

Tog'li sharoitlarda zirhli texnikalardan foydalanish va harakat havfsizligini ta'minlashda yo'nalishlarda tog' xududlarini bosib o'tishda va egallashda haydovchilar asosiy yo'l qiyaliklarni va qo'qqisdan tezkor burilishlar yo'nalishida turgan avtomobil texnikalari baland qiyaliklarni egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuning uchun tog'li sharoitlarda zirhli texnikalardan foydalanish va harakat havfsizligini ta'minlash va texnikalarni joylashtirish bir qator qiyinchiliklar to'g'diradi. Jumladan tog'li sharoitlarda avtomobil texnikalarni balant past qiyaliklarga tarqoq joylashganligi, bo'linmalardagi texnikalarni bir xil tipdagi namunalari bilan butlanmaganligi, muhandislik ta'minoti yani har xil turdag'i tusiqlar to'liq barpo etilmaganligi salbiy ta'sir etishi mumkin.



**2-rasm.** Tog'li sharoitlarda avtomobillar harakati

Tog'li hududlarda harakatlanishda ko'p miqdordagi burilishlar, balandliklar va pastliklar ko'p marotaba boshqaruva tormoz mexanizmlaridan foydalanishga majbur qilishi, bu esa o'z o'mnida friksion elementlarini va yurish qismlarini tezda yeyilishiga, shuningdek o'rtacha harakat tezligini kamayishiga va havdoychilarni tez toliqishiga olib keladi va haydovchilarni malakasini hamda mahoratini talab etadi.

Avtomobil texnikalarini texnik holatini nazorat qilish vaqtida dvigatel, transmissiya va yurish qismlarini agregat va tugunlarini, qurol-aslahu, nazorat kuzatuv

asboblarini sozligini sinchiklab tekshirish, ayniqsa uzatma qutilari va tormozlarni sinchiklab tekshirish kerak.

Boshqaruv uzatmalarini nosozligi, ularni tog‘da harakatlanish vaqtida uзilib ketishi avariyyaga yoki halokatga olib kelishi mumkin, bularning natijasida esa ekipaj (hisoblar, haydovchilar) nobud bo‘lish va mashinalarni ta’mirlab bo‘lmaydigan holatga olib kelishi mumkin.

Avtomobil texnikalarni boshqarish bu maxsus ko‘nikmalar, bilimlar, malakalardan xabardorlik hisoblanib, bu jarayonda haydovchilarni o‘ziga ishonch, hissiy muvozanat, ustunlik, stressga chidamlilik, ijodkorlik, yutuqqa intilish, ishbilarmonlik ruhi, mas’uliyat, vazifani bajarishda ishonchlilik, mustaqillik, ijtimoiylik kabi hislatlarini namoyon etishni talab qiladi.

**Xulosa:** tog‘li xududlarda zirhli va avtomobil texnikalaridan foydalanish usullarini takomillashtirish deganda o‘z vakolat doirasidagi boshqaruvi va bajarayotgan ishning mohiyatini puxta bilish, turli hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi aloqalarni anglash, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo‘lgan yo‘llari va usullarini topish tushuniladi. Zirhli avtomobil texnikalarni harakat havfsizligini ta’minlashda, haydovchilarning tajribasi, mahorati, o‘rni roli, beqiyosdir shuning uchun yillar davomida olingan hayotiy tajribalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxamadiev G.M. Avtomobil tayyorgarligi. I qism. (Avtomobil tuzilishi va undan foydalanish asoslari): darslik/ – T.: O‘R QK Akademiyasi, 2019. – 268 b.
2. Avtomobil texnikalari (KAMAZ-4320) texnik tavsifi va foydalanish bo‘yicha qo‘llanma 2-qism. T.: O‘RMV, 2013 y.
3. R.T. Xalikov, F.D. Sattorov. KamAZ-4310 avtomobil texnikasining tormoz tizimi./ o‘quv qo‘llanma – T.: O‘R QK Akademiyasi, 2019. – 59 b.
4. Автомобили КамАЗ 6x6 руководство по эксплуатации.–М.: Воениздат.
5. X. Mamatov Avtomobillar. 2-qism. - T.: 1998. – 282 b.